



Inson qadri – ulug', xotirasi – muqaddas

Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabani 79 yilligi viloyati-mizda ham keng nishonlandi.

9-may kuni tongda Samarqand shahridagi Xotira maydonida viloyat rahbariyati va faollar, harbiylar, huquq-tarbiyot idoralari xodimlari, nuroniylar va yoshlar vakillari jam bo'ldi. Ular maydondagi Motamsaro ona haykali poyiga gullar qo'yib, Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan yurtdoshlarimiz xotirasiga hurmat bajo keltirdilar.

Viloyat hokimi E.Turdimov faxriylar, faollar bilan shubhatlashib, ularni Xotira va qadrlash kuni bilan tabrikladi. Davlatimiz rahbarining xalqimizga yo'llagan tabrigida qayd etilganidek, hozirgi g'oyat murakkab va tahlikali zamonda yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni turli zararli ta'sirlardan himoya qilish, tinchlik va barqarorlikni, millatlar va dinlarni do'stlik va ahillikni asrashda qahramon faxriylarimizning jasorati, shonli analari biz uchun hamisha ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishini ta'kidladi.

– Mash'um urush tugaganiga 79 yil to'lgan bo'lsa-da, xalqimiz qalbida qoldirgan jarohatlarini hal qilgan emas,

– deydi mehnat faxriysi Abdushukur Muhammadqulov. – O'sha davrda har bir xonadon, har bir oilada urush o'z izini qoldirib, kimlarnidir ota-onasidan, kimlarnidir farzandidan, yana ko'plab ayollarni turmush o'rtog'i va sevgan yoridan ayirdi. Minglab insonlarga frontdan oilasi bag'riga qaytib kelish nasib etmadi. Ular sizni bizning bobolarimiz, molarimiz, yaqinlarimizdir. Hamon ularni shirin xotiralar bilan eslash barobarida urushni la'natlaymiz, dunyoga tinchlik tilaymiz. Xotira va qadrlash kunining mohiyati, qadr-qimmatida shunda.

Davlatimiz rahbarining tegishli qarori hamda farmoniga ko'ra, bu yil bayram munosabati bilan urush va mehnat fronti faxriylari, keksa avlod vakillarini ijtimoiy muhofaza qilish va moddiy rag'batlantirish, ularning turmush sharoitini yaxshilash borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirildi. Ta'lim muassasalarini, mahallalarda keksa avlod vakillari bilan uchrashuvlar, madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda.

Bayram arafasida viloyatda istiqomat qilayotgan besh nafar urush qatnashchisiga Prezidentimiz tabrigi va 20 million so'mdan pul mukofoti, esdalik sov'g'alari tantanali ravishda topshirildi. Shuningdek, mahalliy hokimliklar, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan faxriylarga munosib hurmat-ehtirom ko'rsatildi.

Toyloq tumani hududi jihatidan viloyatda eng kichik tumanlardan hisoblanadi. 221 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladigan tumanda sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, bandlik, qayta ishlash va ishlab chiqarish borasida katta imkoniyatlar bor. Biroq keyingi paytlarda bu imkoniyatlardan to'liq foydalanilmaganligi tufayli tuman iqtisodiyotida oqsqlik kuzatilmoqda.

Joriy yilning 13-aprel kuni viloyat hokimi E.Turdimov ishtirokida tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlar tanqidiy tahlil qilindi.

Ma'lumotlarga ko'ra, tumandagi 488 ta sanoat korxonasidan 203 tasi (41,6 foiz) faoliyat ko'rsatmaydi. Shundan atigi 13 ta korxonada faoliyatini tiklagan bo'lsa, 1 ta korxonada reyestrda chiqarilgan, xolos. Kuzatuvdagi 12 ta korxonada o'tgan yilga nisbatan kam hajm ko'rsatgan, 80 ta kichik korxonada o'tgan yili statistik hisobotlarini hajmsiz "nol" topshirgan. Shundan 1 ta korxonada 155 ming

Tadbirkorlikka tayanch bo'lish taraqqiyotga hissa qo'shishdir

so'm hajm bilan qayta hisobot topshirgan. Tumanning sanoat ishlab chiqarish hajmi 316,3 milliard so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 112,8 foiz bo'lgan, viloyatdagi ulushi esa atiga 6,9 foiz.

Iqtisodiy barqarorlikning muhim bo'g'inlaridan biri elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish va to'qimachilik, tekstil sohalari hisoblanadi. Birgina elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish yo'nalishida tumanda 3 ta korxonada ro'yxatdan o'tgan bo'lib, shundan 2 tasi faoliyat ko'rsatmaydi. To'qimachilik va kiyim ishlab chiqarish bo'yicha 62 ta korxonada ro'yxatdan o'tgan bo'lsa-da, ularning 35 tasi faoliyat ko'rsatmayapti, 14 tasi hajmsiz "nol" hisobot topshirgan va 1 tasi hisobot topshirgan.

Viloyat hokimi savdo va xizmat ko'rsatish sohasi eng rentabelli yo'nalish bo'lsa-da, tumanda bu borada natijalar pasayib ketganligiga e'tibor qaratdi. Masalan, tumanda 643 ta xizmat ko'rsatish korxonasidan 182 tasi (28,3 foiz) faoliyat ko'rsatmaydi,

108 ta kichik xizmat ko'rsatish korxonasi 2023-yildagi statistik hisobotlarini hajmsiz "nol" topshirgan va 10 tasi hisobot topshirmagan. 1033 ta savdo korxonasidan 280 tasi (27,1 foiz) faoliyat ko'rsatmaydi. Shundan atigi 8 ta korxonada faoliyatini tiklagan, kuzatuvdagi 3 ta korxonada o'tgan yilga nisbatan kam hajm ko'rsatgan.

Tumandagi 164 ta qurilish korxonasidan 46 tasi (28 foiz) faoliyat ko'rsatmaydi, kuzatuvdagi 3 ta kichik korxonada o'tgan yilga nisbatan kam hajm ko'rsatgan. 52 ta kichik korxonada 2023-yildagi statistik hisobotlarini hajmsiz "nol" topshirgan va 1 ta korxonada hisobot topshirmagan.

Tumanda tajribali dehqonlar va yerdan yuqori hosil olish imkoniyati bo'lishiga qaramasdan qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi 130 ta tadbirkorlik subyektidan (fermerlarsiz) 55 tasi (42,3 foiz) faoliyat ko'rsatmaydi.

(Davomi 2-sahifada) >>>

Sayyor qabul jarayonida 59 nafar shaxs jazodan ozod qilindi

Viloyat sudi raisi va viloyat ma'muriy sudi raisi Samarqand shahridagi "Ishga marhamat" monomarkazida aholi bilan uchrashuv va sayyor qabul o'tkazdi.

Tadbirda shuningdek, viloyat sudi hamda jinoyat, fuqarolik ishleri bo'yicha Samarqand shahar sudlari, Samarqand shahar iqtisodiy sudi sudyalari ishtirok etdi.

Dastlab viloyat sudi raisi Olim Hayitov va viloyat ma'muriy sudi raisi Tohir Fayziyev sud-huquq islohotlari, qonunchilikdagi yangiliklar haqida tushuncha berdi.

Qabul jarayonida 67 nafar fuqaroning jinoyat, fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy masalalar yuzasidan murojaatlari ko'rib chiqildi. Aksariyat murojaatlar shu yerning o'zida ijobiy hal qilindi, qolganlari bo'yicha arizalar qabul qilindi va huquqiy tushuntirish berildi.

Sayyor qabulda sodir qilgan jinoiy qilmishi uchun sud hukmi bilan jazo o'tayotgan 59 nafar fuqaro qilmishidan pushaymonligi, tegishli xulosa chiqarganligi, tuzalish yo'liga qat'iy o'tganligini, bundan buyon sog'lom turmush tarzi asosida hayot



kechirishini bildirib, jazoning o'talmay qolgan qismidan ozod qilishni so'radi.

Shu yerda jinoyat ishleri bo'yicha Samarqand shahar sudining sayyor sud majlisi tashkil etilib, har bir holat alohida ko'rib chiqildi va murojaatlar qanoatlantirildi.

Jazodan ozod qilingan yoki jazosi yengillashtirilgan fuqarolarga monomarkazda kasb o'rganish tavsiya etildi. O'qish istagini bildirgan uch nafar sobiq mahkum o'zlari tanlagan kasb bo'yicha o'qishga jalb qilindi.

Viloyat sudi OAV va jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi.

Xotira mangu, xotira abadiy, avlodlar umrining davomiyligi. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q, deb bejiz aytilmagan. Aj-dodlar xotirasiga ehtirom ko'rsatgan xalqning buguni farovon, ertasi yorug' bo'ladi. O'lis kechmishda sodir bo'lgan har bir voqea-hodisa keyinchalik mohiyat e'tiboriga ko'ra tarixiy saboq va xulosaga aylanadi. Millatning barhayotligi va kelajagi mana shu saboq va xulosaga ham bog'liq bo'lib, jamiyatning kelgusidagi ma'naviy-axloqiy mavqei belgilaydi. Har bir millatning o'zi, o'lis ajdodlari bosib o'tgan o'tmishga doir xotirasining uyg'oqliq uni eziguliklari sari undaydi. Xotirasi, milliy va diniy qadriyatlarini, aj-dodlari merosidan judo qilingan xalq esa, shubhasiz, tanazzulga yuz tutadi. Tarix sahifalarida bunga misollar ko'p.

Inson xotirasi har bir kishining uzoq-yaqin o'tmish tarixidan, voqea-hodisalardan xabardorligi, o'z ajdodlarining ezgu amallari, kelajak avlodlarga qoldirgan ma'naviy-ma'rifiy merosidan bahramandligi va ularga amal qilishi demakdir. Bu xabardorlikdan milliy xotira kelib chiqadi. O'tmish tarixining bugungi kun va ertangi kelajak bilan bevosita bog'liqligi haqida fikr yuritilganda ayni shu holat ko'zda tutiladi.

Insoniyat tarixi bir qarashda odamlarning bu yorug' olamda tinch-totuv umrguzaronlik qilishi uchun harakatlari, jangu jadallar, taloto'plar, qirg'inbarot urushlar, tabiiy ofatlar va yana ko'p sir-sinoatlardan iboratdir tuyuladi. Aslida ham shunday. Ammo tarix sahifalariga naqshlangan beadoq xotiralar ichida eng muhimi - sodir bo'lgan voqea-hodisalardan, insoniyatning buyuk bunyodkorlik ishlaridan, yaratuvchilik faoliyatidan anglashiladigan xulosalardir.

Istiqolimizning dastlabki yillaridan boshlaboq xalqimizning asrlar davomida bosib o'tgan o'tmish tarixini, ozodlik uchun kurashlari sahifalarini chuqur o'rganish, bobokalonlarimiz hurmatini joy-joyiga qo'yish, yosh avlodni ular bilan haqli ravishda faxr-

MANGU VA ABADIY



lanish ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor berilayotganligi bejiz emas. Bu e'tibor milliy istiqol g'oyasining, ma'naviy tarbiya ishining, yosh avlod qalbida vatanparvarlik, istiqolimizga sadoqat ruhini shakllantirishning bosh maqsadini tashkil etadi. Buning boisi, xotira va qadr tuyg'usi o'sib kelayotgan yosh avlod ongiga chuqur singdirilsagina ular qalbida buyuk aj-dodlarimizga, keksa avlod vakillariga munosib vorislar bo'lib yetishish orzusi ro'yobga chiqadi.

Agar biz o'tmish ajdodlar xotirasini ulug'lasak, Vatandozligi, millat ravnaqi yo'lida jon fido qilgan vatandoshlarimizni unutmasak, ularning jasorati va fidoyiligini o'zimiz, farzandlarimiz uchun o'rnak deb bilsak, ibratli ishlarini davom ettirsak, keyingi avlodlar ham ayni shunday yo'l tutadi. Shu bois ortimizdan kelayotgan yosh avlodni har jihatdan komil insonlar qilib tarbiyalashda, ma'naviy-ma'rifiy ishimizda, olib borayotgan targ'ibot-tashviqot tadbirlarida, ayniq-

sa, safimizga qo'shilayotgan yoshlar bilan ishlashda, ularning dunyoqarashini, ong-shuurini to'g'ri shakllantirishda tarixiy xotiradan, moziy saboqlardan, alloma ajdodlarimizning meros va o'g'itlaridan, donishmandlarimizning asarlarida bayon qilingan ko'rsatmalardan unumli foydalanishimiz zarur.

Bu yilgi Xotira va qadrlash kuni Ikkinchi jahon urushi yakunlanganining 79 yilligiga to'g'ri keldi. Yillar urush asoratlarini, beadoq g'am-anduhlarni bizdan tobora uzoqlashtirmoqda. Janggohlarda qon kechib, urushning jamiki azob-uqubatlarga guvoh bo'lgan, mardlik va jasorat namunalari ko'rsatgan vatandoshlarimiz safi tobora siyraklashib borayotir. Shu boisdan ularga alohida hurmat-ehtirom ko'rsatish, urush haqidagi tasavvurlari kitoblar, badiiy, hujjatli filmlar, mo'yqalam sohiblarining polotnolari ta'sirida shakllanayotgan yoshlar bilan uchrashuvlar o'tkazish, xotiralarni yozib olish nihoyatda muhim.

Tan olish kerak, so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida xalqimizning tinch va osuda hayotini ta'minlashga, turmush darajasini yuksaltirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda keksalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilarga ham alohida g'amho'rlik ko'rsatilmoqda.

Joriy yilning 16-aprel kuni davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan "Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"gi farmon ham buning yaqqol tasdiq'idir. Bu urush faxriylarini nafaqat moddiy rag'batlantirish, balki ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashning yana bir yorqin ifodasi bo'ldi.

Bayram kunida xalqimiz shu yorug' va farovon kunlarga shukronalar aytish barobarida, hayotimizning tinchligi va osoyishtaligi, osmonimizning musaffoligi uchun jangu jadallarda jon olib, jon bergan ajdodlarimiz xotirasi oldida bosh egadi. Ayni chog'da, bugun hayot bo'lgan, oramizda yashayotgan, hayoti va boy tajribasi bilan yosh avlodga har jihatdan o'rnak bo'layotgan urush qatnashchilarining hurmatini har qancha o'rninga qo'ysak arziydi. Ularning ko'nglini olish, dardiga malham bo'lish yo'lida

Munosabat

qo'limizdan kelgan barcha ishni qilish bugungi avlod uchun ham farz, ham qarz bo'lmog'i darkor.

Xotira va qadrlash kunining ma'naviy mohiyati yana shundan iboratki, mamlakatimizda nafaqat urush qatnashchilari, shu bilan birga, ko'pni ko'rgan nuroniy otaxon-onaxonlar, ustoz va murabbiylar, o'z kasbining mohir ustalari to'g'risida ham g'amxo'rlik qilinmoqda. Chehrasidan nur yog'ilib turgan keksa avlod vakillarining bebaho hayotiy tajribasi biz uchun nihoyatda muhim. Ular hayotimizning ko'rki, piru-badavlatlik ramzi. Keksalar bilan bamaslahat ish tutish, ularning duosini olish, og'irlarini yengil qilish xalqimizning ezgu qadriyatlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunimizning muhim vazifalaridan biri — o'sib kelayotgan yosh avlodga, aziz farzandlarimizga tinchlik bu - hayotdagi eng ulug' ne'mat ekanligini tushuntirish, ong-shuurlariga singdirishdan iborat. Negaki, dunyo mintaqalarida urush oladini qayta yoqish, bo'lingan dunyoni qayta bo'lib olish, qurolli, irqiy va boshqa mojarolar chiqarish, xalqlarning osuda hayotiga rahna solish va bundan moddiy manfaat ko'rish harakatlari hozir ham yo'q emas. Tinchlik buzilgan, halovot yo'qolgan, totuvlik qo'ldan ketgan joydan baraka qochadi, adovat urug'vabo yolg'it urchi boshlaydi. Odamlar yaratish, bunyodkorlik faoliyatidan chalg'iydi. Shu boisdan ham hamisha ogoh bo'lish, ahil-inoqlikni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasiga befarq bo'lmislik to'g'risida davlatlarni doimo yodimizda tutmog'imiz va unga amal qilmog'imiz zarur.

Xotira va qadrlash — har birimizning millat ravnaqi, hayotimizning farovonligi bilan bevosita bog'liq ezgu niyatimiz va amaliy ishlarimizda ham o'z aksini topadi. Biz, shubhasiz, buyuk xotiraga egamiz, ammo buyuk kelajakni xotira bilan faxrlanishning o'zi bilangina yara-tib bo'lmaydi. Bizdan buyuk ishlar xotira bo'lib qolishi, bugungi, kelajakdagi ishlarimiz, ezgu amallarimiz va yutuqlarimiz ham kelgusi avlodlarni yangi zafarlarga ruhlantirishi va ilhomlantirishi lozim.

Xudoyor MAMATOV,
yuridik fanlar doktori, professor,
Markaziy saylov komissiyasi kotibi.

Tadbirkorlikka tayanch bo'lish taraqqiyotga hissa qo'shishdir



(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Yig'ilishda korxonalar faoliyatini to'liq tiklash va ishlab chiqarishni to'g'ri yo'lga qo'yish bo'yicha tuman mas'ullariga o'n besh kun muddat berilgandi. O'tgan vaqt davomida korxonalar faoliyatini qayta o'rganish va tiklash, kamchiliklarni bartaraf etish borasida qanday ishlar amalga oshirilgani bilan qiziqdik.

SANOQDA BOR, AMMO...

- Sanab o'tilgan 33 ta korxonalar faoliyatini tiklagan bo'lsa, 96 ta korxonalar reyestrda chiqarildi, - deydi tuman hokimining birinchi o'rinbosari Jamshid Xo'jamurodov. - Kuzatuvdagi 12 ta korxonadan 8 tasi ikkinchi chorak yakuni bilan kamaygan hajmini to'liq qoplash imkoniyatiga ega. Masalan, "Ventradion" xususiy korxonasi 2-chorakda 17 milliard so'mlik eksportni amalga oshirish, "Pet sam plast premium" MChJ 117 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarish choralarini ko'rildi. 40 ta korxonamiz 7,5 milliard so'm hajm bilan qayta hisobot topshirdi.

Elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi 3 ta korxonalar faoliyatini o'rganib chiqdik va zarur yordam ko'rsatildi. Jumladan, joriy yilning birinchi choragida "Sam fiorenta" MChJ tomondan 11,5 milliard so'mlik changyutgich ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirilgan bo'lsa, iyun oyida qiymati 17 milliard so'mlik mis kabellar ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirish chorasi ko'rilmogda. Buning uchun zarur uskunalarni keltirilgan, xomashyo va malakali ishchilarni tanlash ishlari olib borilmoqda.

Albatta, iqtisodiyot tarmoqlari orasida yengil sanoatning o'rni beqiyos. Respublikamizda bu tarmoqni rivojlantirish uchun sifatli xomashyo, arzon ishchi kuchi, sharoit, imkoniyat yetarli. Shu bois bu yo'nalishda tashkil etilgan korxonalarining to'liq ishlashi uchun kerakli amaliy yordamlar ko'rsatildi. O'rganishlardan so'ng 8 ta korxonalar faoliyatini tikladi, 12 ta korxonalar reyestrda chiqarildi, 6 ta korxonalar 25,5 million so'm hajm bilan qayta hisobot topshirdi.

Xizmat ko'rsatish yo'nalishidagi 27 ta korxonalar faoliyatini tiklandi va 72 tasi reyestrda chiqarildi. Savdo korxonalarining 46 tasi ishga tushdi, 126 ta korxonalar turli

sabablarga ko'ra faoliyatini tugatdi.

E'tirozlarga sabab bo'lgan yirik tarmoqlardan yana biri qurilish sohasi bilan bog'liq edi. Birinchi chorakning katta qismi qish mavsumiga to'g'ri kelishi tufayli qurilish ishlarida biroq oqsoqlik kuzatiladi. Ammo bu bajarilgan ishlar sarhisobiga salbiy ta'sir qilmasligi kerak. Shu bois tumandagi 11 korxonaning faoliyatini tiklandi, ishlay turgan 16 ta korxonalar ro'yxatdan chiqarildi.

Ishchi guruh bilan birgalikda o'rganishlar natijalariga ko'ra, hisobotlarda "noi" hajm ko'rsatgan korxonalar bilan qayta hisob-kitob qilindi. Qishloq xo'jaligi yo'nalishida ham 3 ta korxonalar ishni boshlagan bo'lsa, ishlay turgan va ishni tashkil qila olmagan 29 ta korxonalar ro'yxatdan chiqarildi.

SOLIQDAN QOCHISH UCHUN ISHCHINI "QOQ'OZGA" YASHIRADIMI?

Muhokamada qayd etilgan kamchiliklardan yana biri soliq tushumlari borasida edi. Raqamlarda keltirilishicha, soliq hisobotlarida 545 ta aylanmadan soliq to'lovchilar tomonidan xodimlar soni 1 nafardan, 279 ta soliq to'lovchi tomonidan "noi" ko'rsatilgan. 133 ta ijara obyekti bo'yicha ijara shartnomalari tuzilmagan, 176 ta subyektda onlayn



nazorat kassa mashinasi mavjud emas, 3,3 milliard so'm undirish imkoniyati mavjud bo'lgan soliq qarzi undirilmagan.

Tuman soliq inspeksiyasining ma'lumotlariga ko'ra, yuqorida sanab o'tilgan kamchiliklar bartaraf etilgan va 3,3 milliard so'm soliq qarzidan 0,41 milliard so'm undirilgan.

Tumanda qishloq xo'jaligi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Viloyatda ishlab chiqariladigan go'shtning 44 foizi, baliqning 36 foizi, sut mahsulotlarining 13 foizdan ortig'i tumanda tayyorlanadi. Qulay geografik joylashuv va yaratilgan imkoniyatlar tufayli sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va eksportda ham sharoit yetarli. Ammo hozirda tumanda ro'yxatdan o'tgan 488 ta sanoat korxonasidan 203 tasi faoliyat ko'rsatmasligi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va eksport salohiyatining pasayishiga salbiy ta'sir qiladi. Aksariyat korxonalarining ishlaganligi hisobiga tumanda eksport ko'rsatkichi joriy yilning birinchi choragida 9,5 million dollar o'rniga amalda 3,7 million dollarga (39 foiz) bajarilgan. Shu vaqtda atigi 2,6 million dollar xorijiy investitsiya o'zlashtirilgan, shuningdek, Davlat investitsiya dasturi doirasida 6 ta loyihadan 5 tasida 4,8 million dollarlik investitsiya o'zlashtirilmagan.

Jumladan, "Bog'izag'on" kichik sanoat zonasida qiymati 4,2 milliard so'mlik 2 ta loyihadan qurilish ishlari bir yildan buyon to'xtab qolgan. "Davlatobod" kichik sanoat zonasida 2 ta loyihadan qurilish ishlari bir yildan buyon boshlanmagan.

YIL YARMIGACHA NATIJALAR YAXSHILANADI(MI?)

- Tumanda faoliyat yuritayotgan korxonalaridagi mavjud zaxira imkoniyatlardan foydalangan holda ikkinchi chorakda 12 million

546 ming AQSh dollarlik mahsulot eksport qilish rejalarini ishlab chiqildi, - deydi tuman hokimligi investitsiya, sanoat va tashqi savdo bo'limi bosh mutaxassisi Suhrob Xidirov. - Dehqon va fermer xo'jaliklari tomonidan 160 gektar maydonda yetishtirilayotgan gulqaramdan 3200 tonna mahsulot olish hisobiga 700 ming dollarlik mahsulot eksport qilindi. Birinchi chorakda xorijiy investitsiyani jalb qilishda biroq sust-kashlikka yo'l qo'yganimiz bor gap. Endi ikkinchi chorakda tumandagi korxonalar tomonidan 8 ta loyiha doirasida 11,6 million dollarlik xorijiy sarmoya jalb qilish choralarini ko'rilmogda. Chet el sarmoya-



si asosida tumanimizda o'simlik yog'i ishlab chiqarishni kengaytirish, ko'p qavatli uylar qurilishi, mehmonxona, o'quv va logistika markazi tashkil etish, chorvachilik, parrandachilikni rivojlantirish, profil ishlab chiqarish loyihalari ishga tushiriladi.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

ZILZILAga TAYYORMIZMI?

YANGI BINO VA INSHOOTLAR SEYSMIK XAVFSIZLIK TALABLARIGA JAVOB BERADIMI?

Bu savollarga bugun nafaqat rasmiylar, balki qurilish sohasi mutaxassislari ham javob berishga qiyinaladi. Sababi, Turkiya, Yaponiya, Tayvan singari rivojlangan davlatlarda sodir bo'lgan zilzilalar va ularning oqibatlari dunyo hamjamiyatini sergak tortirdi. Tabiatning bu hodisasiga bepisand munosabat nechog'lik og'ir oqibatlarga olib kelishini amalda ko'rdik.



Aslida xalqimiz zilzila nima va qanday vayronkor kuchga ega ekanligini yaxshi biladi. Yurtimizning seysmik faol hududda joylashgan qismida ro'yxatga olingan eng kuchli zilzilalardan biri 1902-yilning 16-dekabr, ertalab soat 10:00da Andijon shahrida ro'y bergan. O'sha kuni uch marta 9 balli va undan yuqori kuchga ega turkilar shahar va uning atrofidagi qurilishlarni yakson qilgan. 1946-yilning 3-noyabrda O'zbekiston va Qirg'izistonning katta hududini qamrab olgan Chotqol zilzilasi, 1966-yilning 26-apreldagi Toshkent zilzilasi, 1976-yilning 8-aprelda ikki qaytalagan Gazli zilzilasi keltirgan kulfatlarni yoshi ulug'larimiz yaxshi eslashadi. Biroq keyingi vaqtda bu fojialar biroq esdan chiqarilganidek.

Viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasida bo'lib o'tgan tadbirida "Bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish masalalari muhokama qilindi. Unda qurilish korxonalarini, ijtimoiy soha obyektlari rahbar xodimlari, jurnalist va mas'ullar ishtirok etdi.

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori Erkaboy Sobirov, O'zbekiston Fanlar akademiyasi mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti ilmiy xodimi Mirjalol Xoliqov davlatimiz rahbarining shu yil 17-apreldagi qarori ahamiyati, unda belgilangan vazifalar haqida ma'lumot berdi. Ta'kidlanganidek, bugun bizda binolarning zilzila va boshqa omillar sabab ko'rgan zarari darajasini aniqlash, ularni bartaraf etish, umuman, qurilish ishlarida seysmoizolyatsiya va dempfer uskunalardan foydalanish masalasiga e'tibor talab darajasida emas. Qaror bu jarayonni tartibga solib, sohada zamonaviy texnologiyalarni qo'llash vazifasini qo'yayotgani bilan ahamiyatli.

Unga muvofiq, 2024-yilning 1-iyunidan MSK-64 shkalasi bo'yicha 8 va undan yuqori balli seysmik faol zonalarda qurilish rejalashtirilayotgan 5 qavatdan yuqori tibbiyot obyektlari hamda 9 qavatdan yuqori binolarni aktiv seysmik himoyalash qurilmalari, shu jumladan, seysmoizolyatsiya va dempfer uskunalari bilan loyihalash amaliyoti yo'lga qo'yilmogda. Shu sanadan respublika hududida bo'lib o'tgan zilzilalar monitoringi, ular-

ning ilmiy tahlili va faol tektonik yer yoriqlarining harakatlari orqali yaqin kelajakda kutilayotgan kuchli zilzila xavfi bor hududlarni aniqlash amaliyoti qo'llaniladi. Bunda seysmoprognozitik monitoring amalga oshirilishini tashkil etish, bo'lib o'tgan zilzilalarning raqamli ma'lumotlar bazasini shakllantirish va qayta ishlash seysmoprognozitik monitoring respublika markazi tomonidan, zilzilalarning vujudga kelish mexanizmi, darajasi va zilzila darakhchalarining turli geodinamik jarayonlarda namoyon bo'lishi, shuningdek, yaqin kelajakda kutilayotgan kuchli zilzila xavfi bor hududlarni aniqlash Fanlar akademiyasi tomonidan amalga oshirilishi belgilandi.

Joriy yilning 1-iyulidan boshlab esa yangi qurilish rejalashtirilayotgan xavfli omil III - IV toifa bo'lgan obyektlarga bino va inshootlarning yuk ko'taruvchi konstruktiviyalariga avtomatik monitoring qilish uskunasi o'rnatish majburiy etib belgilanmogda. Bu uskunalar olinadigan ma'lumotlar yagona bazaga kiritilish orqali doimiy nazorat qilib boriladi.

— Keyingi 10 yilda dunyoda sodir bo'lgan falokatli zilzilalar oqibatida 914 ming kishi qurbon bo'lgan, 2,5 milliondan ortiq kishi jabrlangan, umumiy iqtisodiy zarar esa 360 milliard dollarni tashkil etgan, - deydi Mirjalol Xoliqov. — To'g'ri, texnika va texnologiyalarning hozirgi taraqqiyoti bilan ham zilzilaning qachon va qayerda bo'lishini aniq aytib bera olmaymiz. Lekin biz zilzilaga tayyor bo'lsak, buning ahamiyati yo'q. Ayni maqsadda seysmik xavfsizlikni ta'minlash hamda bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish tizimini takomillashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Rejada bugungacha foydalanuvda bo'lgan bino va inshootlarni ham nazoratdan o'tkazib, zilzilaga bardoshli oshirilishi belgilangan.

Kunning ikkinchi yarmida viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasida seminar o'tkazilib, joylardagi qurilish obyektlarida o'rganish ishlari olib borildi. Ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldi.

Asqar BAROTOV.

Adliya nazoratidagi yoshlar uchun mehnat yarmarkasi

Joriy yilda yurtimizda 7 toifadagi yoshlarning davlat idoralari tomonidan otaliqqa olinishi tizimi yo'lga qo'yilib, vazifalar belgilandi. Ayni vazifalar ijrosi doirasida viloyatimizdagi barcha tuman va shaharlarda viloyat adliya boshqarmasiga birlashtirilgan yoshlar uchun bo'sh ish o'rinlari mehnat yarmarkasi tashkil etildi.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbirida 60 dan ortiq tashkilot va idoralar, davlat muassasalari 400 dan ziyod ish o'rinlari bilan qatnashdi. Jarayonda ish beruvchilar yoshlar va fuqarolarga talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar, xodimlarga yaratilayotgan sharoit, mehnat faoliyati turlari haqida ma'lumot berishdi.

Mehnat yarmarkalarida 900 nafarga yaqin yoshlar qatnashib, 42 nafarining bandligi ta'minlandi. 69 nafar yosh kasb-hunarga o'qi-



tish markazlariga yo'llanma oldi.

Xususan, Samarqand shahridagi Qorasuv massivida bo'lib o'tgan tadbirida "Daka Inteks" MChJga 4 nafar, "Aromir Boulding" MChJga 5 nafar va "Afrosiyob Jens" MChJga 4 nafar yosh ishga joylashdi. Narpay tumanida esa 14 nafar fuqaroning o'ziga ma'qul sohada bandligi ta'minlandi. Shundan 6 nafari probatsiya hisobida turuvchi fuqarolardir.

Aytish joizki, bugungi kunda viloyatimiz yoshlari 2,5 million nafarni tashkil etadi. Ularning 33 ming nafardan ortig'i viloyat adliya boshqarmasiga birlashtirilgan. Hozirga qadar boshqarma tomonidan 31 ming nafardan ortiq yoshning huquqiy muammolari o'rganilib, bosqichma-bosqich bartaraf etilmogda.

Viloyat adliya boshqarmasi matbuot xizmati.

BU FAKT!

Statistika boshqarmasiga ko'ra, 2024-yil yanvar-mart oylarida viloyatda nikohdan ajrashganlarning 48,1 foizi farzandsiz, 26,0 foizi bitta farzand bilan va 25,9 foizi ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2024-yil yanvar-mart





Yana bir TALABALAR TURAR JOYI ochildi

TATU Samarqand filialining 400 o'rinli talabalar turar joyi qurib foydalanishga topshirildi. Tadbirning ochilish marosimida Raqamli texnologiyalar vaziri o'rinbosari Rustam Karimjonov, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori Baxtiyor Mahkamov va boshqalar ishtirok etdi.

Respublikamizda ayni vaqtda 51 mingdan ortiq yoshlar IT yo'nalishida ta'lim o'lyapti, - dedi R. Karimjonov. - Afsuski, hali bu sohada sifat yaxshi emas. Joriy yilda 12 mingdan ziyod talaba IT yo'nalishida oliy ta'lim muassasalarini bitiradi. Ularga yetarlicha ish joyi mavjud, faqat yoshlar bu sohada yanada ko'proq o'qishi, izlanishi lozim. Internet, kompyuter savodxonligi va bilimi bo'lsa, uydagi o'tirib ham 2000 dollar topa oladi. Bo'lajak IT mutaxassislarini talabalar turarjoyi bilan tabriklayman.

Yangi talabalar turar joyi Samarqand shahridagi Usta Umar Jo'raqulov ko'chasida joylashgan bo'lib, uning qurilishiga 26 milliard so'm sarflandi. Davlat xususiy sherikchiligi asosida qurilgan mazkur bino to'rt qavatdan iborat. Har bir xona to'rt kishiga mo'ljallangan, unda to'rtta krovat, stol-stul, shkaf va alohida yuvinish xonasi mavjud. Har bir qavatda oshxona, kir yuvish xonasi bor. Talabalar yotoqxonada internetdan bemalol foydalanishlari mumkin.

Yangi talabalar turar joyining foydalanishga topshirilganini biz uchun ancha yengillik bo'ldi, - dedi kompyuter injiniring fakultetining multimedia texnologiyalar yo'nalishi talabasi Sohiba Bo'stonova. - Sababi, biz avtobusda filialga uzoqdagi talabalar turar joyidan qatnardik. Bu yotoqxonaga esa shundoq o'qish joyimizning yonida qurildi.

Xurshida ERNAZAROVA.

IT xizmatlari eksporti: Birinchi chorakda 1 million 700 ming AQSh dollari

Viloyat Matbuot uyida Samarqandda IT xizmatlari eksportini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar sarhisobiga bag'ishlangan anjuman bo'lib o'tdi. Unda mavzu yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi viloyat hududiy shu'basini boshlig'i Dilmurod Xo'jamberdiyev ma'lumot berdi.

Ta'kidlanganidek, joriy yilning o'tgan birinchi choragida viloyatdagi IT xizmatlarini eksport qiluvchi korxonalar soni 36 taga yetib, ulardagi 513 nafar mutaxassis tomonidan 1 million 703 ming AQSh dollarlik xizmatlar eksport qilingan. Holbuki, o'tgan 2023-yilning shu davrida viloyatda bor-yo'g'i 12 ta shunday korxonaga bo'lib, eksport hajmi 503 ming AQSh dollarini tashkil etgan. Tahlil sohaning har bir yo'nalishida o'sish ko'rsatkichi 300 foizdan oshganligini ko'rsatmoqda.

- Yil boshida viloyatda IT xizmatlari eksportini rivojlantirish maqsadida vazirlik hamda viloyat hokimligi hamkorligida 13 yo'nalishdan iborat

chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi, - deydi Dilmurod Xo'jamberdiyev. - Shunga muvofiq, o'tgan vaqtda AQShning 20 dan ziyod IT kompaniyalari bilan muzokaralar olib borilib, Logex, Upaynet, RX2go singari istiqbolli kompaniyalar bilan hamkorlik memorandumlari imzolandi. Hozir ularning viloyatimizdagi bo'limlarida 100 nafardan ziyod mahalliy yoshlar ish bilan ta'minlangan.

Tadbirda sohada kutilayotgan yangiliklar, IT xizmatlari eksportini amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga qonunchilikka muvofiq berilayotgan imtiyoz va erkinliklar to'g'risida ham ma'lumot berildi.

Viloyat hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi direktori Matluba Allamurodovning matbuot anjumanida ma'lum qilishicha, hozirgi kunda Samarqandda 22 ta kushxona ishlayotgan.

100 yil xavfli virusni uyingizda saqlaysizmi?

Ayrim fuqarolar to'lovdan qochib yoki go'sht narxining ortib ketishidan cho'chib, chorva mollari uyida, qassoblar xizmatidan foydalanib so'yishni odat qilgan. Lekin chorva mollari so'yilgan joyda 100 yilgacha xavfli viruslar saqlanib qoladi va bu yillar o'tib butselloz kasalligini keltirib chiqarishi mumkin.

Salomatlik uchun xavfli mahsulotlarni aniqlash borasidagi tadbirlar doirasida viloyat oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi, mikrobiologiya va VSY

laboratoriyalari tomonidan hozirgacha sifatsiz bo'lgan 889 kilogramm parranda, 1929 kilogramm sut mahsulotlari iste'mol uchun yaroqsiz, deb topilib, o'rnatilgan tartibda dalolatnoma tuzilib, yo'q qilindi. Shuningdek, 843 kilogramm baliq, 22430 dona tuxum, 25 kilogramm asal, 2275 kilogramm sut va sut mahsulotlari, 39072 kilogramm o'simlik, 19517 kilogramm poliz, 3896 kilogramm tuzlamalar iste'molga yaroqsizligi uchun dalolatnoma tuzilib yo'q qilindi.

Ma'rifatli onalarning bilimdon farzandlari

Nurobod tumanidagi 1-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Nasiba Bobonazarova joriy o'quv yilidagi hisobot darsini shu nomdagi bellashuv bilan o'tkazdi.

Bugun umumta'lim maktablarida o'qituvchilarning ochiq dars, hisobot dars o'tkazishi an'anaga aylandi. Bu orqali ularning tajriba va mahorati, o'quvchilarning esa fanlarni qanday o'zlashtirayotganini ko'pchilik ko'z o'ngida namoyon bo'ladi.

Odatda, bunday mashg'ulotlarga maktab rahbariyati va o'qituvchilar taklif qilinadi. N. Bobonazarova esa o'qituvchilar bilan birga o'quvchilarning ota-onalarini ham darsga taklif qildi. Taklif qilganda ham ularni faqatgina kuzatuvchilikka emas, dars ishtirokchisi sifatida qatnashishga da'vat etdi.

- Ayrim ota-onalar farzandi yaxshi o'qimasligida maktabni, o'qituvchini ayblay-

di, - deydi muallima. - Vaholanki, qaysiki maktabda, sinfda o'qituvchi va ota-onalar hamkorligi yaxshi yo'lga qo'yilgan, ular bir-biriga yordam berayotgan bo'lsa, o'quvchilar puxta bilim o'lyapti, o'zlarini to'la namoyon qilmoqda. Men ham har bir o'quvchining o'qishi, qiziqishlari yuzasidan ota-onalar bilan doimiy suhbatlashib boraman, ular bilan birga bolani ma'lum sohaga yo'naltiramiz, ta'lim-tarbiyasiga e'tibor beramiz. Bu o'zining ijobiy natijasini bermoqda. Shu bois bu galgi ochiq darsda 6-sinf o'quvchilari orasidan bilimdon va faollarni tanlab, ular o'rtasida bellashuv tashkil etdik. Bu jarayonni o'quvchilarning onalari ham kuzatib bordi. Yakunda eng zukko o'quvchi va uning onasiga "bilimdonlik toji" kiydirdik. Bu boshqa o'quvchilar va ularning onalariga ham ibrat bo'ldi.

Hikoyat HAZRATOVA, Nurobod tumanidagi 1-maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari.



REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

"KARYERA KUNI"

mehnat yarmarkasiga marhamat!

2024-yil 16-may kuni soat 10:00 da Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida bitiruvchilarning bandleligini ta'minlash maqsadida ish beruvchi tashkilotlar ishtirokida "Karyera kuni" mehnat yarmarkasi bo'lib o'tadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda aynan ta'lim sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Zero, mamlakat kelajagi - intellektual va bilimli kadrlarga bog'liq. Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega yosh mutaxassislariga ehtiyoji bo'lgan iqtisodiyot, bank, buxgalteriya, raqamli iqtisodiyot sohasi tashkilotlari vakillarini yarmarkaga taklif etamiz.

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI TA'LIM YO'NALISHLARI VA MUTAXASSISLIK LARI TO'G'RISIDA MA'LUMOT:

BAKALAVR

60310100 - iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
60310100 - iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti)
60310100 - iqtisodiyot (oziq-ovqat va resurslar iqtisodiyoti)
60310500 - raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
60410100 - buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)
60410200 - soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha)
60411300 - biznesni boshqarish (qishloq xo'jaligida)
60410400 - moliya va moliyaviy texnologiyalar
60410500 - bank ishi va audit
60410800 - statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

MAGISTRATURA

70310102 - iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
70310501 - raqamli iqtisodiyot
70410101 - buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
70410401 - davlat moliyasi va xalqaro moliya
70410501 - bank ishi va audit

SIRTQI

60310100 - iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
60410100 - buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)
60410200 - soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha)
60410400 - moliya va moliyaviy texnologiyalar
60410500 - bank ishi va audit

Manzil: Samarqand shahri Professorlar ko'chasi, 51-uy.

Murojaat uchun telefon: (+99866) 237-32-00.

DA'VOLAR BO'LSA

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasida marhum Xasanov Yakub Nosirovichga (2023-yil 25-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasida marhum Radjabova Tojiga (1999-yil 4-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasida marhum Nurmamedova Salomat Ismoilovnaga (2021-yil 12-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nurqosimov Ramziddin Sayfiddinovich notarial idorasida marhum Berdibayev Allayar Kuranbayevichga (2023-yil 18-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nurqosimov Ramziddin Sayfiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 80-uy.

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Valixodjavey Farzod Botirovich notarial idorasida marhum Eshonkulova Ziyodaga (2023-yil 7-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Valixodjavey Farzod Botirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Toyloq shaharchasi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Sharipova

Dilorom Ulashevna (2019-yil 10-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Kenjayev Murtazo Yaxyoevichga (2023-yil 14-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Pardayev Mexriddin Muxriddin o'g'li notarial idorasida marhum Boboqulov Shodmonqul Raxmonovichga (2021-yil 17-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Pardayev Mexriddin Muhiddin o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Narpay tumani Oqtosh shaharchasi (Xalq banki yonida).

BEKOR QILINADI

Fuqarolar Nigmatov Sandjar Amdamovich va Obidova Gulchexra Subxonovna o'rtasida 2023-yil 16-yanvarda Samarqand shahri Sartepe MFY, Sartepe ko'chasi, 5-mikrorayon, 175-uy, 44-xonadon uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Alieva Lola Zoirnova tomonidan tasdiqlanib, № 202301714000161 raqam bilan reestrda qayd qilingan ko'chmas mulk (ko'p qavatli uydagi kvartira) oldi-sotdi shartnomasining asl nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT!

Samarqand viloyat ichki ishlar boshqarmasidan 2011-yil 16-dekabrda Jurayev Xakimjon Shadikulovich nomiga berilgan № 5852 raqamli pensiya guvohnomasi Samarqand shahar hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: (+99888) 286-18-37.

"O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati viloyat filiali jamoasi filial maslahatchisi O'ktam Erkayevga ukasi iqtisod fanlari doktori, professor **Baxtiyor ERKAYEV**ning vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.




TEATRga QACHON BORGANSIZ?

Aslida ushbu savolni har birimiz o'zimizga berib ko'rishimiz kerak, nazarimda. Boisi, ko'pchiligimiz hayot tashvishlari, kundalik yumushlardan ortib oxirgi marta qachon teatrqa borganimiz va qanday spektaklni tomosha qilganimizni eslay olmasak kerak.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari imkoniyatlarining kengayib borayotganligi tufaylimi yoki boshqa sababdanmi, odamlarning teatr san'atiga bo'lgan qiziqishi susaygandek. Teatrlarda bepul spektakllar namoyish etilsa ham aksariyat hollarda zal to'lmay qoladi. Afsuski, "Xo'sh, teatring nima berardi?" deguvchilar ham oramizda yo'q emas. Bu esa kishini o'ygatdirdi...

Ma'rifat va ma'naviyatga, xayrli ishlarni bajarishga intilgan, hamma narsa moddiyatga bog'liq emasligini anglagan inson har zamonda bo'lsa ham teatrqa boradi. Teatr san'atining kishilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirish, ong va tafakkurini teranlashtirishdagi ahamiyati katta. U odamlarni ezgulikka chorlaydi, yaxshilikka undaydi, kishi ko'ngliga go'zal his-tuyg'ularni bag'ishlaydi. Ijtimoiy hayotning u yoki bu jihatlari, jamiyadagi o'zgarishlarni, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni ochib berishda ham teatr san'ati eng ta'sirchan targ'ibot vositalaridan biri hisoblanadi.

Teatr - avvalo, tarbiya, madaniyat, ma'rifat ulashuvchi dargoh.

Teatrning kino yo'li shunga o'xshash tomosha ko'rsatuvchi san'at turlaridan farqli jihatlari bor. Qiziqarli badiiy film, serial yoki mashhur xonandalarining konsert dasturlarini televideniye yoki ijtimoiy tarmoqlardan tomosha qilishingiz mumkin. Teatr san'atida esa spektaklni zalda o'tirib tomosha qilish ekansiz, biror obrazni yaratayotgan aktyorning hayajoni, har bir harakatini ko'rib, his qilaisiz.

So'nggi yillarda davlatimiz rahbarining sa'y-harakati bilan teatr san'ati rivojlanib, yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Asta-sekin odamlar teatrqa qayta boshladi. Bu esa ushbu ulug' dargoh ijodkorlarini qo'llab-quvvatlash va ruhlantirishga xizmat qilmoqda. Mazkur o'zgarishlar jarayonida Samarqand viloyati musiqali drama teatri ham chinakam ibratxonasi sifatida tomoshabinlarga manzur bo'ladi, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan sahna asarlari yaratmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda sohaga qaratilayotgan e'tibor natijasida Samarqand viloyat musiqali drama teatri tarbiyat moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Binosi ta'mirlanib, zamonaviy qiyofaga ega bo'ldi.

Viloyat musiqali drama teatri O'zbekistonda-gi ko'hna teatrlardan biri bo'lib, bu yerda ilk bor 1914-yilda Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" spektakli namoyish etilgan va shubhasiz, bu voqealarni bema'lol Samarqandda teatr san'atiga tamal toshi qo'yilgan kun sifatida e'tirof etish mumkin. Samarqand teatri 110 yillik tarixga ega bo'lib, ijodiy faoliyati davomida turli mavzu va janrlardagi tarixiy, milliy, zamonaviy va jahon mumtoz asarlari sahnalashtirildi. Keyingi yillarda yaratilgan "Imon", "Samarqand say-qali", "Ko'chki", "Sohil bo'ylab chopayotgan olapar", "Tazarru", "Bahodir Yalangto'sh", "Shayx Nizomiy Ganjaviy" kabi yirik sahna asarlari tomoshabinlarga manzur bo'ldi.

Yaqinda hamkasblarimdan biri «Kecha oila a'zolarim bilan "Bahodir Yalangto'sh" spektakliga tushgan edik. Teatrdan o'tkazgan vaqtimga achinmadim. Aksincha, tez-tez kelib turishni maqsad qildim. Sahna dekoratsiyasi, aktyorlar mahorati, ajoyib musiqalar meni o'sha davrga yetakladi. Tariximiz bilan yaqindan tanishishga muvaffaq bo'ldim. Bahodir Yalangto'shning jasorati ko'z oldimda namoyon bo'ldi», deya so'zlab qoldi.

Suhbatimizni tinglab turgan yana bir hamkasbimga yuzlanaman: «Siz-chi, teatrqa qachon tushgansiz?». Biroq bu savolni berganimga o'zim ham xijolat tortdim. Sababi, yaqin yillarda teatr ostonasiga qadam bosmagan hamkasbim yer chizdi. «Toshkentga borolganim yo'q!», deya o'zini oqlamoqchi bo'lgandek bo'ldi. Shu asnoda viloyatimizda faoliyat yuritayotgan teatrlarda

ham poytaxtdagidan kam bo'lmagan sahna asarlari yaratilib namoyish qilinyotganligini ko'pchilik bilmas ekan-da, degan fikr kechdi xayolimdin. Aslida o'zbek milliy teatr san'ati rivojida alohida ahamiyatga ega bo'lgan Samarqandda teatr targ'ibotini kuchaytirish lozimligini his etdim.

Suhbatimizga yaqinda ishga kelgan yosh hamkasblarimdan biri qo'shildi.

- Adashmasam, o'tgan yili oktabr oylari edi. Tushdan keyin ishxonaga kelsam, eshik oldida ustozlar to'planib turishgan ekan. Teatrqa bor-yapimiz, deyishdi. Men ham ularga ergashdim.

O'shanda teatrqa birinchi marta borishim edi. Yangi sahna asari namoyish etilyotgan ekan, miriqib tomosha qildim. Spektakl qahramonlariga qo'shilib xursand bo'ldik, g'am cheksa, unga achindik, qayg'usiga sherik bo'ldik, sahna nafasini his etib turdik. Shu bo'ldi-yu, yangi spektakl haqida ehsitam, vaqt topib, albatta, tomoshaga boradigan bo'ldim, - deydi u.

Yana bir jihat, yurtdoshlarimiz har doim ham kundalik yumushlar, hayot tashvishlaridan ortib madaniyat maskanlariga, xususan, teatrlarga boravermaydi. Aksincha, biror spektakl haqida maroq bilan gapirayotgan kishini ko'rib qolsa, unga "Teatr senga non berarmidi, osh berarmidi?" deya ajablanib qaraydi.

Prezidentimiz 2023-yil 22-dekabr kuni o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida idora va muassasalarda o'ynay borgan kunini "Teatr kuni" deb e'lon qilish hamda rahbar va xodimlar, ularning oila a'zolarining teatrlarga borishini yo'lga qo'yish taklifini bildirgan edi. Ushbu taklifga binoan 2024-yilning 3-fevral kuni Samarqandda mahalliy hokimliklar, korxonalar va tashkilotlar rahbarlari va ularning oila a'zolari viloyat musiqali drama teatriga borishdi. Bu yerda ularga Asqar Xolmo'minov tomonidan sahnalashtirilgan «Layli va Majnun» spektakli namoyish etildi. Spektakl yakuniga qadar hech bir tomoshabin o'rinni tark etmadi. Aksincha, spektakl voqealari katta qiziqish bilan tomosha qildi.

Keyingi paytda viloyatda o'tkaziladigan turli ommaviy tadbirlar, umumxalq bayramlari, ma'rifiy anjumanlar munosabati bilan davlat xizmatchilari, turli soha vakillarini teatrqa taklif etish ham an'anaga aylandi. Jumladan, Samarqandda bu yilgi xotin-qizlar bayrami viloyat musiqali drama teatriga tashrif bilan boshlandi. «O'jar qaynona» spektakli namoyishi faol ayollar, iqtidorli qizlarning oila qo'rg'onini mustahkamlash, er va xotin, qaynona va kelin munosabatlari-ga oid qarashlariga ta'sir etmay qolmadi, albatta. Shu ma'noda teatr - ma'rifat ulashuvchi, ezgulikni targ'ib qiluvchi, odamlarni yaxshilik qilishga undovchi maskan.

Shuning uchun ham barchamiz teatrga borib turishimiz kerak. Ayniqsa, farzandlarimizni juda g'irchoq teatrlariga yetaklab borishimiz juda foydali. Chunki teatr sahnasida milliy qadriyatlarimiz namoyon bo'ladi, hayotiy jarayonlar, ayrim kamchilik va illatlar badiiy saviyada yuzaga chiqariladi. Spektakl qahramonlari bilan qisqa fursat bo'lsa-da, birga yashaysiz, xayolan voqealarga ishtirokchisiga aylanasiz.

Mirzo IXTIYOROV.

Ilm – ma'rifat tarqatishda bag'rikeng



Toshtemir domla bilan ikki oliyog'ohda bir davrda o'qiganmiz. Talabalikda turli tadbirlarda birgalikda ishtirok etganmiz, 1973-yilda a'lochi va faol talabalar respublika anjumanida qatnashganmiz.

Bu yigitdagi g'ayrat-shijoat havas qilgulik edi: bir qarasang, kurash tushib, g'oliblikni egallaydi, bir qarasang, "Talabalar bahori" festivalida madaniy tadbirda ishtirok etadi, yana ilmiy to'garakda ma'ruza o'qiydi. Shu sababli ham diplomini olgach, uni institutga ishga taklif etishdi.

Toshtemir Ostonaquulov 10-15 yil ichida ilgama ishtiyogi, aql-zakovati bilan ustozlari safiga qo'shildi. Uning yutug'i qanoat va sabrida, shuning barobarida katta ishtiyogida edi. Qishloqda o'sgan yigit emasi, dehqonchilik ilmi-ga mehr qo'ydi, domlarning har bir topshirig'ini bajarmaguncha dalada yurdi, o'zi aytganidek, o'simlik guli ochilishini tuni bilan kuzatgan paytlari bo'ldi. Shu sababli salohiyatli olimlar rahbarligida nomzodlik va doktorlik tadqiqotlarini bajarish barobarida viloyatda kartoshkaning yangi navlarini yaratishga muvaffaq bo'ldi.

T.Ostonaquulov institutda dekan, birinchi prorektor va rektor sifatida faoliyat ko'rsatdi, Samarqand ilmiy, ijtimoiy muhitida salohiyatli ziyoli darajasiga erishdi. Taniqli ustozlari, iqtidorli shogirdlari, dehqonlar hurmatini qozondi. Esimda, yillar davomida qishloq xo'jaligida murakkab holat yuzaga kelganda qishloq xo'jaligi mutasaddilarga yordam qo'lini cho'zdi. Tajribali olimlar va talabalar bilan bevosita dalada, paykaldan amaliy ko'mak ko'rsatdi.

Toshtemir domla Surxondaryoning, qo'ng'iro't elining farzandi. Otasi Eshim Ostonaquulov 87 yil umr ko'rib, hayoti davomida chorvachilik va dehqonchilik bilan mashg'ul bo'ldi. Onasi, bor-yo'g'i 47 yil yashagan Oydamar Kenjayeva Toshtemirning "raislarni, raykomlarni o'qitadigan katta domla" bo'lishini Allohdan so'ra kan.

Ota-onra duosini olgan Toshtemir o'rta maktabni a'lo baholarga tugatib, ulug'lar, buyuklar, allomalarga be-

shik bo'lgan Samarqand sari yo'l oldi. Ammo o'sha paytlar bu ulug' shahar uning taqdirini mulqo o'zgartirib yuborishini, onasining duolari aynan ana shu qutlug' maskanda ijobat bo'lishini bilganmikan? O'zining shu yerda oila qurib, farzandlari nevaralarining o'sib ulg'ayishi va kamol topishini xayoliga keltirganmikan? Harqalay, shunday bo'ldi. Bu esa Toshtemir domla uchun Allohning ulug' ne'mati va siylovi edi.

1970-yilda T.Ostonaquulov Samarqand qishloq xo'jalik instituti agronomiya fakultetining talabasi bo'ldi, besh yil mobaynida faqat a'lo baholarga o'qidi. Aspirantura, doktoranturada tahsil oldi. Samarqandda nomzodlik, Sankt-Peterburgda doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildi. Dotsent, professor, Sankt-Peterburg Fanlar akademiyasi akademigi bo'ldi. Samarqand qishloq xo'jalik institutida oddiy o'qituvchilikdan tortib, rektorlik lavozimigacha ishladi.

Bu mehnatkash, tinib-tinchimas insonni ham fanda, ham odamiylikda, ham tashkilotchilikda yuksakka olib chiqqan buyuk ne'mat - bu ilm-ma'rifat, ana shu yo'lga unga charog'bonlik qilgan olimu fozil kishilar bo'ldi.

Bugun yoshi ulg'ayib, sochlariga oq oralagan Toshtemir domla ana shu olis-olislarda qolgan uyini, ajib bolaligini yodga olganida, hayotdan ilk saboqlarni bergan kimyo va biologiya fanlari o'qituvchisi Bakir Ergashev, fizika va matematika fanlaridan ta'lim bergan Fayzi Bozorov va Boymurod Jo'rayev, ona tili va adabiyot sehrini o'rgatgan Yoqubxon Usanov va Rahmon Mustafuqulov, jismoniy tarbiya murabbiysi Yangiboy Imomov kabi ustozlarini shirin bir xo'rsinish bilan eslaydi.

Talabalik davrlarida esa taqdir uni akademik Diamat Abdukurimovga, Iskandar Hamdamov, Panji Uzoqov, Sharif Nazarov, Y.Gorelov singari professorlarga va boshqa ko'plab ustozlarga duch qildi. Toshtemir domla bu ulug' murabbiylarni, ilm yo'lga boshlagan fuzil insonlarni hamon qalbining to'rida saqlaydi.

Domla shogirdlariga ham nihoyatda bag'rikenglik, ayni paytda talabchanlik bilan munosabatda bo'ladi. Ularning nuqsonlaridan ko'z yumadi, kamchiliklarini kechiradi, g'amxo'rlik qilishdan charchamaydi.

U ilm degan ulug' ne'matni faqatgi-



na meros qilib olmadi, balki talabalarga saboq berish, ilmiy-ommabop maqolalar, o'quv va o'quv-metodik qo'llanmalar, monografiya va darsliklar yozish, shogirdlar tayyorlash bilan o'zining kamtarona hissasini qo'shib kelmoqda.

Hozirga qadar domla 12 turdagi ekinning 36 ta navini yaratish ustida ilmiy-tadqiqot ishlari olib bordi. 400 ga yaqin maqolalari halqaro va respublika miqyosidagi nufuzli jurnallarda chop etilgan. 50 dan ortiq darslik va o'quv qo'llanmalar, 40 ga yaqin monografiyalar muallifi. 40 ta tadqiqotga mualliflik guvohnomasi, 12 ta ixtirosi uchun patent olgan. 34 ta dissertatsiyaga (shulardan 9 tasi doktorlik) rasmiy opponentlik qilgan. Qishloq xo'jaligi sohasida 5 ta fan doktori, 20 dan ortiq fan nomzodi va PhDlar tayyorladi. Bu hajmdagi ishlar katta va mashaqqatli mehnat evaziga yuzaga kelganligini ilmning qadriga yetadiganlar his qiladi, albatta.

Yolg'iz o'tning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong'i chiqmas, deydi xalqimiz. Oilada shunga yarasha muhit bo'lgandirki, domlarning ijodi barakali. Bu barakani domlarning oilasi Barchinoy ayada deb bildik. Chunki farzandlarning barchasi oliy ma'lumotli. Bir o'g'li iqtisod fanlari doktori, professor, yana bir o'g'li Amerika Qo'shma Shtatlarida yirik bir korporatsiyada bosh direktor, qizi iqtisodchi-pedagog bo'lib voyaga yetishida shu donishmand ayolning ulkan hissasi bor.

Garchi domla 70 yoshni qarshilayotgan bo'lsa-da, undagi g'ayrat va shijoat aksariyat yoshlarda yo'q. Domladagi ana shu noyob fazilatlar uning hali ko'p xayrli ishlarni qila olishidan umidvor qiladi.

Suyun KARIMOV, professor, Farmon TOSHEV, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist.

Ustoz – shogird an'anasi yangi iste'dod egalarini kash qilmoqda

Urgut tumanidagi 16-bolalar musiqa va san'at maktabida 31 nafar o'qituvchi 200 nafarga yaqin o'quvchiga to'qqiz yo'nalishda musiqa va san'at sirlarini o'rgatib kelmoqda. Muassasamizda 2023-2024-o'quv yilida xo-reografiya yo'nalishi ochilgan bo'lib, maktab qoshida "Gavhar" raqs ansambli tashkil etilgan.

Raqs jamoamiz yaqinda Samarqand shahrida o'tkazilgan "Ipak yo'li san'ati" xalqaro tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritdi. Shuningdek, Madaniyat vazirligi tomonidan o'tkazilgan "San'at sehri" tanlovida muassasamiz o'quvchilari Otabek Xo'jaqulov nay yo'nalishida gran-prini, an'anaviy sozandalik bo'yicha Ozodbek Matlabov, zar-do'zlik yo'nalishida Odina Ahmadova oliy o'rinni hamda an'anaviy xonandalik bo'yicha Isroil Murodullayev ikkinchi o'rinni egalladi.

O'quvchilar erishayotgan yutuqlarda taniqli ustoz san'atkorlar va maktabimiz o'qituvchilarining hissasi katta. Muassasada ustoz-shogird an'anasi yo'lga qo'yilgan bo'lib, tajribali mutaxassislar va taniqli san'atkorlarni o'quvchilarga mahorat darslari o'tish uchun jalb qilganmiz. Shu bois o'quvchilarimiz san'atning turli yo'nalishlarida tuman,



viloyat, respublika va xalqaro tanlovlarda faxrli o'rinnlarni qo'lga kiritmoqda.

Yaqinda O'zbekiston xalq hofizi, o'zbek milliy maqom san'ati markazi ustoz-shogird bo'lmi boshlig'i Isroiljon Vahobov, Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambli xonandasi Sunnatilla Yunusov o'qituvchi va o'quvchilarimizga o'zbek milliy maqom san'ati bo'yicha mahorat darsi o'tdi.

Azizjon HAKIMOV, Urgut tumanidagi 16-bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 12 212 nusxada chop etildi. Buyurtma 248. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:


A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

O'.XUDOYBERDIYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

